
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 110 sahifa,
2-oktyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida deontologik tamoyillar asosida nizolarni boşqariş 10
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Sun'iy intellekt asosida maktab öquvçilarining matematik xatolarini diagnostika qiliş va individual tavsiyalar şakllantirişning gibrid adaptiv modeli 15
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Abdurazzoqova Zebuniso Tolmas qizi

Harbiy xizmatçilarning pedagogik mahoratini oşirişning ilmiy-metodik asoslari 21
Yadgarov Ravşan Ergaşeviç

Inklyuziv ta'limda logopedik texnologiyalardan foydalaniş metodikasi 27
Ikramova Dilafruz Furqat qizi, Ilhomova Malikaxon Dilşod qizi

Faoliyat markazlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning raqamli savodxonligini şakllantiriş metodikasi 30
Jo'rayeva Gulira'no Nazirjon qizi

Bölajak tasviriy san'at öqituvçilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirişda an'anaviy naqqoşlik san'atining pedagogik imkoniyatlari 36
Rözmetov Quvondiq Şanazarovich

Pedagogik hamkorlik asosida ösmir yoşdagi öquvçilarda ijtimoiy voqelikka sezgirlikni tarbiyalaş mexanizmlari 42
Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi

Talabalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini jismoniy madaniyat vositasida rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 47
Imomov Asliddin Abdurazoqoviç

Harakatli öyinlar yordamida boşlanğiç sinf öquvçilarining harakat faolligini oşiriş usullari 51
Ernazarova Ziyoda Erkin qizi

Sun'iy intellektning inson fikrlaş qobiliyatiga ta'siri: intellektual rivojlaniş uçun imkoniyatlar va tafakkur zaiflaşuvi xavfi 55
Tölaganov Abdumalik Abdiraximoviç

Jadidçilik harakatining vujudga kelişining ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlari 60
Nişonov Muhammad Bahodir öğli, Pulatov Şerdor Nematjonoviç

Maktabgaça ta'lim taşkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari 66
A'zamova Malohat Nadjimovna

Söz yasalişi, morfologiya va sintaksisning özига xos xususiyatlari 70
Bobojanov Şaripboy Xudoşukiroviç

Inklyuziv ta'limda diskriminatsiyani oldini oliş va ularni psixologik qöllab quvvatlaş tamoyillari 74
Bozorova Muxlisa

Neyro logopediya va biometriya 78
Foiqova Diyora Anvar qizi

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş 83
Ibrohimova Şahlo Umarali qizi

3–4-sinf öquvçilarining badiiy asarlar öqişga qiziqişini oşirişning metod, şakl va vositalari 88
Rasulova Zohida Sindorovna

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy-refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik tizimini integratsiyalaş 92
Talabova Dilrabo Tolibova

Informatika va uni öqitiş metodikasi fanini öqitişda adaptiv öquv dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanişning metodik tizimi 98
Xomidov Zohidjon Adhamjon öğli

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов в условиях цифровизации образования 104
Шаланков Константин Константинович

JADIDÇILIK HARAKATINING VUJUDGA KELIŞINING IJTIMOIY-TARIXIY ŞART-ŞAROITLARI

Nişonov Muhammad Bahodir öğli
Andijon davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy falsafa" yönalişi mustaqil tadqiqotçisi

Pulatov Şerdor Nematjonoviç
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Uşbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boşlarida Turkiston hududida jadidçilik harakatining vujudga kelişiga sabab bölgan ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlar tahlil qilingan. Unda Rossiya imperiyasining mustamlakaçilik siyosati, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy özgarişlar, an'anaviy ta'lim tizimining inqirozi hamda milliy ong va ma'rifatga bölgan ehtiyojning kuçayişi kabi omillarning jadidçilik harakati şakllanişidagi örni yoritilgan. Şuningdek, Ismoil Ğaspirali ğoyalari, yangi usul maktablarining taşkil etilişi, matbuot va ma'rifatparvarlik faoliyatining jadidçilik rivojiga ta'siri körib çiqilgan. Tadqiqotda jadidçilik nafaqat ta'lim sohasidagi islohotlar, balki milliy özlikni anglaş, ijtimoiy taraqqiyot va zamonaviy davlat quriş ğoyalarini ilgari surgan ijtimoiy-ma'rifiy harakat sifatida baholanadi.

Kalit sözlar: jadidçilik, jadidlar, Turkiston, ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlar, milliy uyğoniş, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, Ismoil Ğaspirali, milliy ong, mustamlakaçilik siyosati, ta'lim islohoti, milliy özlik.

Abstract: This article analyzes the socio-historical conditions that contributed to the emergence of the Jadidist movement in the territory of Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It examines the role of factors such as the colonial policy of the Russian Empire, socio-economic and political changes in society, the crisis of the traditional education system, and the growing need for national consciousness and enlightenment in the formation of the Jadidist movement. The study also considers the influence of Ismail Gasprinsky's ideas, the establishment of new-method schools, the development of the press, and enlightenment activities on the evolution of Jadidism. The study views the Jadidist movement not only as a reformist movement in the field of education but also as a socio-educational movement that promoted ideas of national self-awareness, social progress, and the establishment of a modern state.

Key words: Jadidism, Jadids, Turkestan, socio-historical conditions, national revival, enlightenment, new-method schools, Ismail Gasprinsky, national consciousness, colonial policy, educational reform, national identity.

Аннотация: В данной статье проанализированы социально-исторические условия, способствовавшие возникновению джадидистского движения на территории Туркестана в конце XIX – начале XX века. Освещена роль таких факторов, как колониальная политика Российской империи, социально-экономические и политические изменения в обществе, кризис традиционной системы образования, а также усиление потребности в национальном самосознании и просвещении в формировании джадидистского движения. Кроме того, рассмотрено влияние идей Исмаила Гаспринского, создания новометодных школ, периодической печати и просветительской деятельности на развитие джадидизма. В исследовании джадидистское движение рассматривается не только как реформаторское движение в сфере образования, но и как общественно-просветительское движение, выдвигавшее идеи национального самосознания, социального прогресса и создания современного государства.

Ключевые слова: джадидизм, джадиды, Туркестан, социально-исторические условия, национальное возрождение, просветительство, новометодные школы, Исмаил Гаспринский, национальное сознание, колониальная политика, реформа образования, национальная идентичность.

KIRIŞ

XIX asrning ikkinçi yarmida Turkistonning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotida katta tarixiy özgarişlar röy berdi. Rossiya imperiyasi uzoq vaqt davomida Turkistonning tabiiy resurslari va strategik imkoniyatlariga qiziqiş bildirib, mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kengaytirişga intilib keldi. XIX asrning 60–70-yillariga kelib, Rossiya imperiyasi Turkiston hududida öz harbiy-siyosiy faoliyatini faollaştirdi va xonliklar hududlarini öz nazoratiga ola boşladi.

Qöqon xonligi qoşinlari Rossiya imperiyasi harbiy kuçlariga Sirdaryo sohillarida qarşilik körsatdi. Harbiy harakatlar davomida qamal, qurolli töqnaşuvlar, aholi köçişi va hududiy özgarişlar kuzatildi. XIX asrning 60-yillari

davomida Qöqon xonligi hamda Buxoro amirligining ayrim hududlari Rossiya imperiyasi nazoratiga ötdi. Bosib olingan hududlarda 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi taşkil etildi.

Buxoro amirligi bilan tuzilgan sulh natijasida amirlik Rossiya imperiyasiga siyosiy jihatdan qaram holatga keldi. 1873-yilda Rossiya imperiyasi qoşinlarining Xiva xonligi hududiga yurişlari va ular bilan bağliq harbiy-siyosiy jarayonlar sulh tuzilişi bilan yakunlandi. Natijada Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasiga qaram davlat maqomiga ötdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Jadidçilik harakatining vujudga kelişi XIX asr oxiri va XX asr boşlarida Turkiston jamiyatida yuz bergan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy özgarişlar bilan çambarças bağliq. Zamonaviy tadqiqotlarda jadidçilik faqat ta'lim tizimini isloh qilişga qaratilgan harakat sifatida emas, balki milliy uyğoniş, modernizatsiya va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ğoyalarini ilgari surgan keng qamrovli harakat sifatida talqin qilinmoqda [1].

Şamsutdinov va Akbarova [2] Markaziy Osiyoda jadidçilik tarixini örganiş masalasini tahlil qilib, harakatning XIX asrning 90-yillarida şakllanganini va keyinçalik ma'rifiy yönalişdan ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga kötarilganini ta'kidlaydi. Mualliflar jadidçilikning şakllanişini ta'lim, milliy uyğoniş va siyosiy jarayonlarning özaro ta'siri bilan bağlaydi.

Gulimmatova [3] xorijiy ilmiy manbalardagi jadidçilik talqinlarini örganib, zamonaviy tadqiqotlarda jadidlar faoliyati milliy uyğoniş, madaniy modernizatsiya va siyosiy faollik bilan bağliq holda baholanayotganini körsatadi. Bu yondaşuv jadidçilikning vujudga keliş şart-şaroitlarini faqat ta'lim sohasi bilan çeklamasdan, jamiyatning umumiy modernizatsiya ehtiyojlari bilan bağliq holda örganiş zarurligini körsatadi.

Akbarov [4] Turkistonda jadid maktablari tarmoğinin şakllaniş şart-şaroitlarini tadqiq qilib, Rossiya mustamlaka tizimining örnatilişi natijasida jamiyatda ma'rifat va zamonaviy ta'limga ehtiyoj kuçayganini körsatadi. Tadqiqotda Ismoil Ğaspirali tomonidan ilgari surilgan "usuli jadid" ta'lim metodining Turkiston hududida tarqalişi va yangi usul maktablarining şakllanişi alohida yoritilgan.

Akhmedov [5] jadidçilik harakatining Turkistonda paydo bölişini mustamlakaçilik şaroitida ma'rifatparvarlik ğoyalarining tarqalişi bilan bağlaydi. Muallif yangi usul maktablari, milliy matbuot va jadidlarning siyosiy qaraşlarini harakat şakllanişining muhim omillari sifatida körsatadi.

Turdiyev [6] jadidçilikni Markaziy Osiyodagi siyosiy va madaniy uyğonişning muhim omili sifatida baholab, jadidlarning zamonaviy ta'lim, matbuot va boşqaruv tizimini isloh qilişga qaratilgan qaraşlarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari jadidçilikning dastlabki ma'rifiy faoliyati keyinçalik siyosiy islohotlar va jamiyatni modernizatsiya qiliş ğoyalari bilan boyiganini körsatadi.

Elmurodov [7] Turkiston jadidlarining şakllanişida taşqi siyosiy va intellektual ta'sirlarni, xususan, "Yoş turklar" harakati bilan aloqalarni örganadi. Tadqiqot jadidçilik ğoyalarining şakllanişida xalqaro tajriba, siyosiy modernizatsiya va milliy manfaat tüşunçalarining ahamiyatini körsatadi.

Auanasova va hammualliflar [8] jadidçilikning ta'limiy harakatdan siyosiy faoliyatga evolyutsiyasini örganib, uning Turkiston muxtoriyati va davlat qurilişi jarayonidagi roliga e'tibor qaratadi. Mualliflar jadidlarning dunyoviy boşqaruv, umumiy ta'lim va siyosiy huquqlar haqidagi qaraşlarini Markaziy Osiyodagi zamonaviy siyosiy tafakkur şakllanişi bilan bağlaydi.

Hamzaoğlu [9] jadidçilikni özbek milliy özliginin şakllanişi nuqtayi nazaridan tadqiq etib, ta'lim islohoti, siyosiy safarbarlik va taraqqiyot ğoyalarining milliy identifikatsiya jarayonidagi rolini oçib beradi. Muallif jadidçilikni zamonaviy milliy ongni şakllantirişga xizmat qilgan modernizatsion loyiha sifatida baholaydi.

Umuman olganda, zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qiliş şuni körsatadiki, jadidçilik harakatining vujudga kelişini bitta omil bilan izohlaş mumkin emas. Uning şakllanişida mustamlakaçilik siyosati, an'anaviy ta'lim tizimining çeklanganligi, yangi usul maktablarining paydo bölişi, matbuotning rivojlanişi, taşqi intellektual ta'sirlar, milliy ongning kuçayişi va jamiyatni modernizatsiya qiliş ehtiyoji özaro bağliq holda ta'sir körsatgan. Şu jihatdan mazkur tadqiqotda jadidçilikning vujudga keliş jarayoni kompleks ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida körib çiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boşlarida Turkiston hududida jadidçilik harakatining vujudga kelişiga ta'sir körsatgan ijtimoiy-tarixiy omillarni aniql aş va tahlil qilişga qaratilgan tarixiy, qiyosiy, tizimli va dialektik yondaşuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik va obyektivlik tamoyillari taşkil etib, jadidçilik harakati öz davrining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'rifiy jarayonlari bilan uzviy bağliqlikda örganildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod orqali Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakaçilik siyosati, mahalliy boşqaruv tizimidagi özgarişlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ta'lim tizimining holati tahlil qilindi. Qiyosiy metod yordamida an'anaviy ta'lim tizimi va jadidlarning yangi usul maktablari örtasidagi farqlar,

şuningdek, Turkistondagi jadidçilik jarayonlari boşqa musulmon hududlaridagi ma'rifatparvarlik harakatlari bilan qiyoslandi.

Tizimli yondaşuv asosida jadidçilikning şakllanişiga ta'sir etgan omillar özaro bağliq holda körib çiqildi. Bunda mustamlakaçilik siyosati, milliy ongning şakllanişi, ma'rifatparvarlik, matbuot, yangi usul maktablari va ijtimoiy-siyosiy islohotlarga bölgan ehtiyoj yagona ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida tadqiq etildi.

Şuningdek, manbaşunoslik va kontent-tahlil usullaridan foydalanilib, jadid namoyandalarining asarlari, davriy naşrlar, ilmiy tadqiqotlar hamda tarixiy manbalardagi ma'lumotlar örganildi. Tadqiqot natijalarini umumlaştirişda induksiya, deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologik yondaşuvlar jadidçilik harakatining vujudga keliş sabablarini kompleks ravişda oçib beriş hamda uning Turkiston jamiyatining ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini baholaş imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turkistonning qisqa vaqt içida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinişi harbiy yurişlar, qurolli töqnaşuvlar va hududiy özgarişlar bilan keçdi. Uşbu jarayonlar mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta'sir körsatdi. Rossiya imperiyasi mintaqada öz siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlaşga qaratilgan boşqaruv tizimini şakllantirdi. Bu tizim orqali hududiy boşqaruv, iqtisodiy munosabatlar va ma'muriy faoliyatning yangi mexanizmlari joriy etildi. Şu bilan birga, Turkistonning Rossiya iqtisodiy tizimiga jalb etilişi natijasida Yevropada rivojlangan ayrim iqtisodiy va madaniy yangiliklarning mintaqaga kirib kelişi tezlaşdi. Şaharlarda yangi madaniy taşkilotlar, savdo va bank muassasalari, tibbiyot korxonalari paydo böla boşladi. Temir yöl, telegraf, elektr energiyasi va telefon aloqasi kabi texnologiyalar joriy etildi, gazeta va kitob naşr etiş faoliyati rivojlandi.

Turkistonda mavjud ijtimoiy tartiblarni isloh qiliş va madaniy yuksalişga bölgan intiliş Rossiya kapitalistik munosabatlarining mintaqaga kirib keliş davriga töğri keldi. Turkistondagi ma'rifatparvarlik harakati an'anaviy ijtimoiy tartiblarni yangilaş, zamonaviy madaniy yutuqlarni özlaştiriş va ularning ahamiyatini tarğib qilişdan boşlanib, asta-sekin ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb eta bordi. Natijada mahalliy xalqning ma'naviy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyatni rivojlantiriş masalalari ilgari surildi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati ikki bosqiçda keçdi.

Birinçi davrda mavjud ijtimoiy tartiblarni isloh qiliş, madaniy yangiliklarni egallaş, Yevropaning turli tillarini örganişni tarğib qiliş, zamonaviy ilm-fanning ahamiyatini oşiriş kabi masalalar ilgari surildi.

Ikkinçi bosqiçda ma'rifatçilik negizida jadidçilik harakati şakllanib, yangiça ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantiriş, yangi usul maktablarini taşkil etiş, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallaş, maorif va madaniyat sohalarida yangi tartiblarni joriy qiliş hamda ijtimoiy-siyosiy masalalarni ilgari suriş darajasiga kötarildi. Jadidçilik harakati turkiy millatlarning ma'naviy-madaniy rivojlanişiga turtki böldi. Turkistonda yangi usul maktablari oçilib, ma'rifatparvar pedagoglar bu maktablar uçun turli darsliklar, öqiş kitoblari va qöllanmalar yarata boşladilar. Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrat, Hamza kabi ma'rifatparvarlar bu sohada faol iştirok etdilar.

Jadidlar harakatining ijtimoiy ildizlari milliy burjuaziyaning vujudga kelişi va uning milliy ozodlikka intilişi bilan bağliqdir. Turkistonda jadidçilik harakatining şakllanişi va rivojlanişiga Rossiya musulmonlarining milliy ozodlik harakati ham sezilarli ta'sir körsatdi. Şuningdek, Turkistonga Şarq mamlakatlarida rivojlangan mustamlakaçilik siyosatini isloh qiliş va milliy manfaatlarni ilgari surişga qaratilgan mafkuraviy oqimlarning ğoyalari ham kirib kela boşladi.

1906-yildan boşlab jadidlar Turkistonda özlarining gazeta va jurnallarini naşr qila boşladilar. Ularning sahifalarida mustamlakaçilik siyosati va mavjud ijtimoiy tartiblarni tahlil qiluvçi, islohotlar zarurligini asoslovçi maqolalar e'lon qilindi. Jadidçilik harakatining diqqat markazida turgan asosiy masalalardan biri maorif tizimini isloh qilişdan iborat edi. Milliy manfaatlarni himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlik hamda qoloqlikdan çiqiş muammolarini anglaydigan, zamonaviy bilimlarga ega savodli kadrlarni tayyorlaş zarurligini jadidlar yaxşi anglaşardi.

Şu sababli dunyoviy bilimlarni örganiş va maorif tizimini isloh qiliş masalalari XIX asr oxiri – XX asr boşlarida Turkiston ijtimoiy fikrining diqqat markazidagi muhim masalalardan biriga aylandi. Behbudiy maorifni jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlarni saqlaş va mamlakat manfaatlarini himoya qilişning muhim vositasi sifatida baholagan.

Behbudiyning bu fikrlari öz ahamiyatini hozir ham yöqotgani yöq. Jadidlar matbuotida maorifni isloh qiliş masalalari har tomonlama muhokama qilindi. Unda maktab işining iqtisodiy va moliyaviy tomonlari, ulamolar va çorizm ma'muriyatining yangi usul maktablariga munosabatlari, öquvçilar psixologiyasi va odobiga ijobiy ta'sir qiliş metodikasi, öqitiş dasturlari hamda maktab işiga oid boşqa köp masalalar haqida maqolalar mavjud edi.

Şuni ham alohida ta'kidlab ötiş zarurki, jadidlar öz maqolalari va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmuş tarzining ayrim tomonlarini isloh qiliş zarurligini uqtiriş bilan birga, yoşlar diqqatini musulmonlarning ötmiş madaniyatiga, ilm-fan sohasida erişgan yutuqlariga, diniy va axloqiy qadriyatlarga jalb qilganlar. Ular tarixiy madaniy merosni öz davridagi ijtimoiy şaroitlar bilan taqqoslab körsatişga harakat qildilar. Jadid ziyolilari

orasida va matbuotda "Turon" ğoyasi ham keng tarqala boşladi. Şu bilan bir qatorda, jadidlar milliy doirada çeklanib qolmaslik, umuminsoniy madaniyat yutuqlari, fan va pedagogik fikr yangiliklaridan foydalaniş zarurligini tarğib qildilar.

Jadidlar siyosiy dasturida Turkistonning mustaqilligi va milliy taraqqiyotini ta'minlaş masalalari muhim örin egallagan. Biroq jadidlar uşbu maqsadlarni amalga oşiriş çora va vositalarini belgilaşda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy vaziyatni hisobga olganlar va öz imkoniyatlaridan kelib çiqib faoliyat yuritganlar.

Jadidlar harakatining yirik namoyandasi va uning nazariy asosçilaridan biri Mahmudxöja Behbudiydir (1879–1919). Behbudiy fikrlarining teranligi va siyosiy ongining yuksakligi bilan jadidlar orasida ajralib turardi.

Behbudiy Rossiya siyosiy hayotidagi turli partiyalarga bölgan munosabatini ifodalab, ularning dasturlari va faoliyatini öz qaraşlari asosida baholagan. Xususan, u qoraguruhlar partiyasining siyosiy faoliyatiga tanqidiy munosabat bildirib, uşbu partiya podşoh bilan xalq örtasidagi muloqot imkoniyatlariga ta'sir körsatişini ta'kidlagan. Behbudiy musulmon aholining diniy va iqtisodiy manfaatlarini davlat boşqaruvi darajasida ifodalaş imkoniyatlarini kengaytiriş zarurligiga e'tibor qaratgan. Uning fikriça, mavjud siyosiy mexanizmlar orqali aholining talab va murojaatlarini davlat rahbariyatiga yetkazişda ayrim qiyinçiliklar kuzatilgan.

Behbudiy sotsial-demokratik va eserlar partiyalarining dasturlari hamda faoliyatini ham özining ijtimoiy-siyosiy va diniy qaraşlari asosida tahlil qilgan. U mazkur partiyalarning mulkçilik, şaxs erkinligi va oila munosabatlariga oid ayrim tamoyillarini musulmon jamiyatining an'anaviy qadriyatlariga töliq mos kelmaydi, deb hisoblagan. Şu bilan birga, Behbudiy kadetlar partiyasining Davlat Dumasi orqali xalq va davlat örtasidagi muloqotni rivojlantirişga qaratilgan qaraşlarini ijobiy baholagan.

Behbudiy 1905-yilda taşkil topgan musulmonlar partiyasiga xayrixohligini alohida ta'kidlagan. Uning fikriça, mazkur partiya umumiy siyosiy talablari va qaraşlari jihatidan kadetlar partiyasiga yaqin bölgan, biroq musulmon aholining manfaatlarini himoya qilişga alohida e'tibor qaratgan. Behbudiy Turkiston musulmonlarining siyosiy hayotda faol iştirok etişi, öz manfaatlarini qonuniy yölar bilan ifodalaşi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qoşişini muhim vazifa sifatida baholagan.

Musulmonlar partiyasi 1905-yilda Nijniy Novgorod şahrida taşkil etilgan. Uning asosiy siyosiy talablaridan biri musulmon aholining diniy işlariga davlat ma'muriyatining aralaşuvini çeklaş hamda mahalliy özini-özi boşqariş tizimini rivojlantirişdan iborat bölgan.

Uşbu maqsadlarni Davlat Dumasi orqali amalga oşiriş mumkinligi ilgari surilgan. Behbudiy Turkistonda musulmonlarning diniy va fuqarolik işleri bilan şuğullanadigan mahalliy boşqaruv organini taşkil etiş zarurligini ta'kidlagan. Uning qaraşlariga köra, mazkur boşqaruv organi qozilar sudi, vaqf mulkini taqsimlaş, maktab va madrasa faoliyati hamda boşqa diniy va milliy masalalarni muvofiqlaştiriş bilan şuğullanişi lozim bölgan. Behbudiy diniy-fuqarolik boşqaruvini jamiyatning ma'naviy barqarorligi, milliy qadriyatlarning saqlanişi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovçi muhim institut sifatida baholagan. Uning maqolalari va islohot loyihalarida ilgari surilgan ğoyalar jadidçilik harakatining dasturiy qaraşlari şakllanişida muhim örin tutgan.

1917-yil Fevral burjua-demokratik inqilobi jadidlar uçun öz dasturiy maqsadlarini amalga oşiriş imkoniyatlarini kengaytirgan tarixiy jarayon sifatida baholangan. Uşbu voqealar milliy özlikni anglaş va siyosiy faollikning kuçayişiga ta'sir körsatgan. Natijada ölkadagi mahalliy aholining siyosiy ongida sezilarli özgarişlar yuz berib, "Şöroi Islomiya" va "Şöroi Ulamo" kabi siyosiy taşkilotlar faoliyat körsata boşlagan.

"Şöroi Islomiya" taşkilotining rahbarlari Munavvarqori, Mustafo Çoqayev, Behbudiy va boşqalar Turkistonda muxtoriyat taşkil etiş, moliya, adliya, boşqaruv, maorif va boşqa sohalarda mahalliy vakolatlarni kengaytiriş hamda matbuot erkinligini ta'minlaş ğoyalarini ilgari surganlar. Behbudiy Turkiston muxtoriyatini Rossiya bilan siyosiy aloqalarni saqlagan holda içki boşqaruv masalalarini mahalliy vakillik organlari orqali amalga oşiriş tizimi sifatida tasavvur qilgan.

Uning qaraşlariga köra, Turkistonning beş viloyatidagi şahar va uyezdlardan saylangan vakillar Toşkentda markaziy majlis taşkil etişi, mazkur majlis mahalliy qonunlar, nizomnomalar va soliq masalalarini tartibga solişi lozim bölgan. Şuningdek, mahalliy xavfsizlik tizimi, milliy-madaniy faoliyatni moliyalaştiriş, maktab va madrasalar, vaqf mulklari hamda sud işlarini mahalliy boşqaruv vakolatlariga ötkaziş nazarda tutilgan. Behbudiy Turkistonda yaşovçi turli millat vakillari örtasidagi munosabatlarni zamonaviy qonunçilik asosida tartibga soliş zarurligini ham ta'kidlagan.

Mazkur maqsadlarni amalga oşirişda Ta'sis majlisi faoliyatida iştirok etiş va muxtoriyat masalasini qonuniy tartibda ilgari suriş muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidlar Turkiston musulmonlarining siyosiy birlikka erişişi, öz manfaatlarini izçil ifodalaşi va vakillik institutlari orqali muxtoriyat masalasini hal etişini zarur deb hisoblaganlar. 1917-yil avgust oyida "Kengaş" gazetasida muxtoriyat loyihasi e'lon qilingan. Mazkur loyihani tayyorlaşda Mahmudxöja Behbudiy va Munavvarqori Abduraşidxonov faol iştirok etganlar.

1917-yil sentabr oyida "Markaziy Şöroi Islomiya" taşabbusi bilan ölka musulmonlari syezdi ötkazilgan. Syezdda hokimiyatni taşkil etiş, davlat boşqaruvida turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini hisobga oliş va umumxalq vakilligini ta'minlaş masalalari muhokama qilingan. Qabul qilingan qarorlarda hokimiyatning keng ijtimoiy vakillikka asoslangan koalitsion şaklini rivojlantiriş ğoyasi ilgari surilgan.

Şu davrda bolşeviklar hokimiyatni Sovetlar tizimi orqali boşqariş tarafdori bölganlar. Mavjud siyosiy vaziyatda Behbudiy va Munavvarqori "Şöroi Islomiya" hamda "Şöroi Ulamo" taşkilotlari örtasida hamkorlikni kuçaytiriş zarurligini ta'kidlaganlar. Uşbu taşabbus 1917-yil 17–20-sentabrda ötkazilgan umummusulmon syezdi qarorlarida öz ifodasini topgan. Unda "Şöroi Islomiya", "Turon" va "Şöroi Ulamo" taşkilotlarining umumiy maqsadlar yölida hamkorlik qilişi muhimligi qayd etilgan.

Syezd işida 500 nafar vakil iştirok etgan. Ular orasida Ural va Turgay viloyatlaridan kelgan vakillar ham bölgan. Syezdda Turkistonning istiqboldagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi, parlament faoliyati va respublika boşqaruvi masalalari muhokama qilingan. Qabul qilingan hujjatlarda parlamentni umumiy, töğridan-töğri, teng va yaşirin ovoz beriş asosida beş yil muddatga saylaş, bunda Turkistonda yaşovçi barça millatlarning teng vakilligini ta'minlaş nazarda tutilgan.

Şuningdek, parlament faoliyatini Rossiya respublikasining asosiy qonunlari va mahalliy aholining huquqiy-madaniy an'analari bilan uyğunlaştiriş masalalariga e'tibor qaratilgan. Turkiston federatsiyasining moliyaviy tizimi, mahalliy xavfsizlik organlari va hududiy boşqaruv vakolatlarini belgilovçi takliflar ham ilgari surilgan. Musulmonlar qurultoylarida Turkistonga muxtor jumhuriyat maqomini beriş töğrisida qarorlar qabul qilingan bölsa-da, mazkur takliflar bolşeviklar tomonidan qöllab-quvvatlanmagan.

1917-yil 15-noyabr kuni Toşkentda soldat, işçi va dehqonlar deputatlari Sovetining ölka syezdi ötkazilib, hokimiyatning Sovetlar tizimiga ötganligi e'lon qilingan. Ölka Soveti tomonidan tuzilgan hukumat tarkibida mahalliy aholi vakillari iştirok etmagan. Syezd hujjatlarida mazkur holat mahalliy aholining Sovet hokimiyatiga munosabati va proletar taşkilotlarining şakllaniş darajasi bilan izohlangan. Bu esa ölka boşqaruvida mahalliy vakillikni kengaytiriş masalasining dolzarbligini körsatgan.

1917-yil 12–15-noyabrda "Şöroi Ulamo" rahbarlaridan Şerali Lapinning taşabbusi bilan "Turli musulmon guruhlarining birlaşgan majlisi" ötkazilgan. Unda Turkistonda hokimiyatni taşkil etiş va Sovetlar tizimiga munosabat masalalari muhokama qilingan. Majlis iştirokçilari mahalliy aholining davlat boşqaruvida munosib vakillikka ega bölişi, demokratik tamoyillarga amal qiliş va xalqlarning öz taqdirini özi belgilaş huquqini ta'minlaş zarurligini ta'kidlaganlar.

1917-yil 27-noyabrda IV ölka musulmonlari favqulodda syezdi ötkazilgan. Syezdda "Qöqon muxtoriyati" e'lon qilingan. Uşbu voqea Turkiston tarixida milliy davlatçilik va özini-özi boşqariş ğoyalarini amalga oşirişga qaratilgan muhim siyosiy jarayonlardan biri sifatida baholanadi.

Jadidlar mazkur syezd faoliyatida iştirok etib, Turkiston Muxtoriyatining taşkil topişiga öz hissalarini qoşganlar. Ular maqolalar va murojaatnomalar orqali jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlaş, muxtoriyatning huquqiy asoslarini rivojlantiriş va ijtimoiy barqarorlikni saqlaş ğoyalarini ilgari surganlar.

Behbudiy Turkiston xalqiga qilgan murojaatlarida birlik, hamkorlik va özaro kelişuvning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Uning qaraşlariga köra, jamiyatdagi hamjihatlik tinçlikni saqlaş, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaş, milliy-madaniy qadriyatlarni rivojlantiriş hamda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga erişişda muhim omil hisoblangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari şuni körsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boşlarida Turkiston hududida jadidçilik harakatining vujudga kelişi jamiyatda yuzaga kelgan murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarning tabiiy natijasi bölgan. Rossiya imperiyasining mustamlakaçilik siyosati, mahalliy boşqaruv tizimidagi özgarişlar, iqtisodiy qiyinçiliklar, an'anaviy ta'lim tizimining zamon talablariga javob bermay qolişi hamda xalqning ilm-ma'rifatga bölgan ehtiyojining ortişi jadidçilik harakatining şakllanişi uçun muhim zamin yaratgan.

Jadidçilik dastlab ta'lim va ma'rifat sohasidagi islohotlardan boşlangan bölsa-da, keyinçalik milliy özlikni anglaş, zamonaviy tafakkurni şakllantiriş, ijtimoiy taraqqiyot va siyosiy islohotlar ğoyalarini ilgari surgan keng qamrovli ijtimoiy-ma'rifiy harakatga aylandi. Ismoil Ğaspirali ğoyalari, yangi usul maktablarining taşkil etilişi, milliy matbuotning rivojlanişi va jadid ziyolilarining faoliyati uşbu jarayonning muhim omillari böldi.

Şuningdek, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ilm-fan, ta'lim, milliy taraqqiyot, madaniy uyğoniş va zamonaviy davlat quriş ğoyalari Turkiston xalqlarining ijtimoiy tafakkuri rivojiga katta ta'sir körsatgan. Şu sababli jadidçilikni faqat ta'lim islohoti sifatida emas, balki milliy uyğoniş va jamiyatni modernizatsiya qilişga qaratilgan tarixiy harakat sifatida baholaş maqsadga muvofiqdir.

Takliflar

1. **Jadidçilik tarixini tizimli örganiş** – jadidlar faoliyatiga oid arxiv hujjatlari, davriy naşrlar va tarixiy manbalarni keng kölamda ilmiy tadqiqotlarga jalb etiş.
2. **Ta'lim tizimida jadidlar merosidan foydalaniş** – jadidlarning ta'lim, ilm-fan, ma'rifat va tarbiya haqidagi qaraşlarini zamonaviy ta'lim mazmuniga integratsiya qiliş.

3. **Yangi avlod tadqiqotlarini qöllab-quvvatlaş** – jadidçilikning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, iqtisodiy va pedagogik jihatlarini alohida yönalişlar böyiça çuqur tadqiq etiş.
4. **Raqamli tarixiy resurslarni yaratiş** – jadidlarning asarlari, maqolalari, fotosuratlari va arxiv hujjatlarini raqamlaştirib, yagona elektron ilmiy bazani şakllantiriş.
5. **Xalqaro qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantiriş** – Turkiston jadidçiligini Qrim, Volga–Ural, Kavkaz va boşqa musulmon hududlaridagi ma'rifatparvarlik harakatlari bilan qiyosiy örganiş.
6. **Jadidlar merosini yoşlar orasida tarğib qiliş** – ilmiy konferensiyalar, oçiq darslar, körgazmalar, hujjatli filmlar va raqamli ta'lim loyihalari orqali jadidlarning milliy va ma'rifiy ğoyalarini keng tarğib etiş.

Umuman olganda, jadidçilik harakatining tarixiy tajribasi bugungi kunda ham ilm-fan, ta'lim, ma'rifat, milliy özlik va jamiyat taraqqiyoti masalalarini anglaşda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulimmatova, R. (2025). Interpretations of the "Jadids" and the "Jadid Movement" in Foreign Scholarly Sources. Philology Matters, 53(2), 170–186. DOI: 10.36078/987655530.
2. Shamsutdinov, R., & Akbarova, N. K. (2024). From the Problem of Studying the History of the Jadidist Movement in Central Asia. Journal of Osh State University. History, 3(1), 256–263. DOI: 10.52754/1694867X_2024_1(4)_31.
3. Akbarov, R. X. (2025). Conditions for the Emergence of the Jadid School Network in Turkestan. Tarixiy Tadqiqotlar, 3(9), 13–20.
4. Akhmedov, F. Sh. (2024). The Emergence of the Jadidism Movement in Turkestan. American Journal of Technology and Applied Sciences, 30, 30–33.
5. Turdiyev, B. S. (2025). Jadidism and Political Reform: Shaping the Future of Uzbekistan. Asian Journal of Basic Science & Research, 7(1), 22–28. DOI: 10.38177/AJBSR.2025.7103.
6. Elmurodov, A. (2024). The Influence of the "Young Turks" on the Turkestan Jadids. Acta NUUz, 1(1.5.1), 253–255. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.5.1.4897.
7. Murodov, H. S., & Khojaniyozov, J. (2025). International Relations of Turkestan Jadids. International Journal of Pedagogics, 5(5), 23–26. DOI: 10.37547/ijhps/Volume05Issue05-06.
8. Auanasova, A., Auanassova, K., Nurpeissov, Y., & Ibrayeva, A. (2026). The Role of the Jadid Movement in State-Building Processes in Central Asia: The Creation and Legacy of Turkestan Autonomy. National Identities, 28(1), 27–44. DOI: 10.1080/14608944.2025.2477043.
9. Hamzaoğlu, H. (2026). Jadidism and the Formation of Uzbek National Identity: Education, Politics, and Modernization in Turkestan. Journal of Balkan and Near Eastern Studies, 28(5), 890–908. DOI: 10.1080/19448953.2026.2633660.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(1)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.